

O'ZBEK TILIDA MORFOLOGIK VOSITALAR ORQALI PRAGMATIK MA'NO IFODALANISHI**Sobirjonova Husniya Obidjon qizi**

Andijon shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi.

Nuriddinova Nozima Obidjon qiziA.Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti institutining
3-kurs talabasi.<https://doi.org/10.5281/zenodo.17553879>

Annotatsiya. Jamiyat taraqqiyotida nutq belgilovchi o'rin tutadi. U jamoadagi kishilarni birlashtirish, ma'lum maqsad sari yo'naltirish imkoniyatiga ega. Kishilar o'z tafakkur darajasi, fikrlash qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra so'zlaydilar. Pragmatikada nutqiy harakat inson faoliyatining turli qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Struktur(sistem) tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rgansa, pragmatika diskurs (muloqot, o'zaro fikr almashuv, kommunikatsiya, aloqa-aralashuv, so'zlashuv) tizimini o'rganadi. Oddiy qilib aytganda, nutqiy muloqotni yaxlit bir tizim sifatida – bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillari bilan uzviy bog'liqlikda, hamkorlikda o'rganuvchi fandir.

So'z ma'nolarini analiz qilish orqali shuni kuzatish mumkinki, barcha so'zlar dastlabki bosqichda monosemantik xarakterga ega bo'ladi. Ulardan muayyan narsa va hodisalarni ifodalash maqsadida foydalaniladi. Keyinchalik ular boshqa predmet va hodisalarni ifodalash maqsadlari uchun ham ishlatiladi. Natijada so'zlarning keyingi ma'nolari kelib chiqadi. So'zning pragmatik ma'no tuzilishi: ma'noning torayishi va kengayishi kabi lingvistik hodisalar tilshunoslikda o'ziga xos tarzda tadqiq etilgan¹. Bu hodisa, ayniqsa, leksikologik sathda atroflicha o'rganilgan bo'lib, ko'pchilik ishlarda leksik ma'no doirasida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: pragmatolingvistika, antroposentrik nazariya, antropolingvistika, pragmatik ma'no, lingvistik vositalar, paralingvistik vositalar.

EXPRESSION OF PRAGMATIC MEANING THROUGH MORPHOLOGICAL MEANS IN UZBEK

Annotation. Speech plays a defining role in the development of society. It has the ability to unite people in a community, direct them towards a certain goal. People speak according to their level of thinking, thinking ability and capabilities. In pragmatics, speech act is studied in connection with various aspects of human activity. While structural (system) linguistics studies the language system, the language system, pragmatics studies the system of discourse (dialogue, mutual exchange of ideas, communication, communication-interference, conversation). Simply put, it is a science that studies speech communication as a whole system - in its integral connection with all linguistic and non-linguistic factors of this process, in cooperation.

By analyzing the meanings of words, it can be observed that all words at the initial stage have a monosemantic character. They are used to express certain objects and phenomena. Later, they are also used for the purpose of expressing other objects and phenomena. As a result, subsequent meanings of words arise. The pragmatic meaning structure of a word: such linguistic phenomena as narrowing and expanding meaning have been studied in a unique way in linguistics. This phenomenon has been studied in detail, especially at the lexicological level, and in most works it has been analyzed within the framework of lexical meaning.

¹Nurmonov.A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. Andijon, 1992 y, 10-20 betlar;

Keywords: *pragmalinguistics, anthropocentric theory, anthropolinguistics, pragmatic meaning, linguistic means, paralinguistic means.*

ВЫРАЖЕНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ МОРФОЛОГИЧЕСКИМИ СРЕДСТВАМИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *Речь играет определяющую роль в развитии общества. Она обладает способностью объединять людей в сообщество, направлять их к определенной цели.*

Люди говорят в соответствии со своим уровнем мышления, мыслительными способностями и возможностями. В прагматике речевой акт изучается в связи с различными аспектами человеческой деятельности. В то время как структурная (системная) лингвистика изучает языковую систему, прагматика изучает систему дискурса (диалог, взаимный обмен идеями, коммуникация, коммуникация-интерференция, беседа). Проще говоря, это наука, изучающая речевое общение как целостную систему — в ее неразрывной связи со всеми языковыми и неязыковыми факторами этого процесса, во взаимодействии. Анализируя значения слов, можно заметить, что все слова на начальном этапе имеют однозначный характер. Они используются для обозначения определенных предметов и явлений. В дальнейшем они также используются для обозначения других предметов и явлений. В результате возникают последующие значения слов.

Прагматическая структура значения слова: такие языковые явления, как сужение и расширение значения, изучались в лингвистике уникальным образом. Это явление подробно изучено, особенно на лексикологическом уровне, и в большинстве работ оно анализируется в рамках лексического значения.

Ключевые слова: *прагматическая лингвистика, антропоцентрическая теория, антропологическая лингвистика, прагматическое значение, языковые средства, паралингвистические средства.*

Kirish

Ma'lumki dunyo tajribasida alohida tilshunoslik institutlari yoki adabiyotshunoslik markalari mavjud bo'lsada, biroq milliy til va milliy adabiyotni bir butunlikda tadqiq etadigan, yutuqlarni to'g'ridan-to'g'ri ta'lim bilan baxam ko'radigan maxsus muassasa yo'q hisobida.

Farmonning professionalligi shundaki, ona tilni milliy adabiyotsiz, milliy adabiyotni esa on tilisiz o'rganib bo'lmagidek oydin haqiqat, yillar sinovidan o'tgan tajriba o'z tasdig'ini topgan.

Mustaqillik avvvval o'zbek tilshunosligi ko'p hollarda tavsifiy harakterda ish ko'rgan bo'lsa, istiqlol yillarida umumtilshunoslikning muhim nazariy muommolari, universal lingvistik ta'limotlar o'zbek tili materiallari asosida o'rganila boshlandi, bir so'z bilan aytganda, hukmron tilshunoslik nazaryalarining to'g'ridan-to'g'ri tatbiqidan voz kechildi. Til sistemasi va uning shakllanish jarayonida yuz beradigan lisoniy hodisalarning mohiyatini belgilash bilan bog'liq nazariy masalalarni to'liq va to'g'ri hal qilmasdan yangi davr talablariga javob beradigan o'quv qo'llanmalari va darsliklarni yaratish mumkin emasligini tushungan ilg'or tilshunoslarning til birliklari va ular bilan bog'liq leksik-sintaktik hodisalarning nazariy jihatlarini asoslashga asosiy e'tiborlarini qaratdi. Natijada tilshunoslikning nazariy tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu borada M.Mirtojiyev, A.Hojiyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, Y.Tojiyev, Sh.Safarov, A.Sobirov, D. Lutfullayeva kabi tilshunoslarning asarlari paydo bo'ldi. A.Nurmonov, N.Mahmudov larning lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari, lingvistik belgi nazaryasi, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, o'zbek tilining

fonologiyasi va morfonologiyasi, sintaktik semantika, o'zbek tilining nazariy morfologiyasi va sintaksisi kabi masalalarga bag'ishlangan tadqiqotlarning yaratilishi o'zbek nazariy tilshunosligining poydevorini mustahkamladi, keying tadqiqotlarining tayanch tushunchalarini belgilab berdi, tilimizning ichki tuzulishini, o'zbek xalqining milliy- ruxiy dunyosi, olamini lisoniy idrok etish tarzi bilan yaxlitlikda qarashga olib keldi.

Maqolaning maqsadi:

- Pragmatika va pragmlingvistika haqida tushuncha berish;
- Pragmlingvistikaning ustivor yo'nalishlari haqida ma'lumot berish;
- So'zning ma'no tuzilishi va o'rganilishini tahlil qilish;
- Pragmatik ma'no ifodalovchi vositalar.

Maqolaning vazifasi sifatida quyidagilarni belgilab olindi: O'zbek tilshunoslarining pragmatikaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarini atroflicha tadqiq etgan holda, pragmatikaning lingvistik mohiyatini chuqurroq o'rganishdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar qo'yildi:

- So'zning ma'no jilolari;
- So'zning pragmatik xususiyatlari;
- Pragmatik mazmunni shakllantiruvchi hodisalar;
- Tagma'no va presuppozitsiyaning umumiy va differensial belgilari;
- So'z ma'nolarining o'zgarish hodisasi;
- So'z ma'nolarining torayishi va kengayishining pragmatik xususiyatlari;
- pragmatik mazmun va baholash munosabati masalalariga aniqlik kiritish.

Maqolaning predmeti: Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog'idir. U insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta'siri bilan aloqador masalalarni o'rganadi. "Pragmatikaning manbasi Ch.Pirs, U.Djems. D.Dyun, Ch.Morris kabi taniqli faylasuf olimlar nomi bilan, bog'liqdir. Chunki ularning ishlarida (XX asrning oxiri va XX asrning boshlarida) belgilar sistemasi va lingvistik belgi funksionalligi xususidagi g'oyalar o'rta tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi".

Asosiy qism

Pragmlingvistikaning paydo bo'lishi va o'rganilishi

Pragmlingvistika tilshunoslikning yo'nalishi sifatida 1970 yillardan tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganila boshlangan. Albatta, tilning pragmatik tabiati xususida qadimdan turli fanlarda qarashlar bayon etilgan. Bu mavzu Sokratdan avval ham, so'ng Aristotel davrida ham o'rganilgan bo'lib, fikr ifodalashda til bilan hamohang ravishda yordamchi vositalar ham ahamiyatli ekani, tilning asosiy vazifasi aloqa-aralashuv ekan, uni ro'yobga chiqarishda so'zlovchi va tinglovchi asosiy figura bo'lishi, notiqlik san'atida fikr uzatishda ovozning sifat o'zgarishlari, ovozning baland yoki past ifodalanishi axborotni uzatishda qo'shimcha nozikliklar berishi aytib o'tilgan edi. Bejizga o'tgan asrning 20-30-yillarida falsafada alohida oqim sifatida pragmatizm g'oyalari targ'ib qilinmagan.

Pragmatikada nutqiy harakat inson faoliyatining turli qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Struktur(sistem) tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rgansa, pragmatika diskurs (muloqot, o'zaro fikr almashuv, kommunikatsiya, aloqa-aralashuv, so'zlashuv) tizimini o'rganadi.

Oddiy qilib aytganda, nutqiy muloqotni yaxlit bir tizim sifatida – bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillari bilan uzviy bog'liqlikda, hamkorlikda o'rganuvchi fandır".²

Shuning uchun pragmatika nutq va axloqiy, insoniy xatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan aloqador fan sohaslarining kesishish nuqtasida turishi bejiz emasligini ko'rsatadi.

Tilshunoslik empirik tahlilni bilishning boshqa g'oyalari va amallari bilan boyitishga uzoq tayyorgarlik ko'rdi. Bunday tayyorgarlik, izlanishlar zoye ketmadi, o'tgan asrning oxiri tilshunoslik taraqqiyotida o'ziga xos yangi bosqich, yangi rivojlanish davri bo'ldi. Shu davrda empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy g'oyalarni o'zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yo'nalishlari yuzaga keldi. Ana shunday yo'nalishlardan biri, albatta, *pragmalingvistikadir*.

Pragmalingvistika, hech qanday gumonsiz «tetapoya» davridan o'tdi, ushbu soha o'z tadqiq obyektni (nutqiy muloqot tizimi) va tahlil metodlarini asosan aniqlab oldi. Pragmatik tahlil tamoyillarini belgilovchi asosiy metodologik g'oya ham aniq: bu – *faoliyat nazariyasidir*.

Ammo pragmalingvistika hamon «navqironlik» davrida. Navqironlik esa – istiqbolli rejalarga to'liqlikdir, hozircha hal etilishi lozim bo'lgan muammolardan tap tortmaslikdir.

Darhaqiqat, barkamollikka intilayotgan pragmatika fani lisonning inson, jamiyat xizmatida bo'lishidagi vazifasining qanday amalga oshirilishi borasida izlanishlarni davom ettirishga majbur. Bu izlanishlar lisoniy bilim sohasidagi ushbu yo'nalishning yangi nazariy g'oyalar bilan boyitilishini talab etadi.³

Ayrim jumlar borki, undan anglashilgan obyektiv mazmun butunligicha faqat muayyan nutqiy vaziyat, kontekst bilan bog'liq bo'ladi. Agar bu jumla shu kontekstdan yoki nutqiy vaziyatdan uzib olinsa, mazkur obyektiv mazmun mavhumlashadi. Masalan, hamma vaqtini chog' o'tkazmoqda jumlasidan anglashilgan "hammaning xursandligi" faqat konkret nutq vaziyati, nutqiy qurshov bilan bog'liqdir. Chunki dunyodagi barcha odamlar doimo vaqtini chog' o'tkazishi mumkin emas. Kimdir nimadandir tashvishlanadi, ozor chekadi, kimdir kasallikdan azob tortadi va h.

Ko'rinadiki, konkret jumalardan anglashilgan bir qator qo'shimcha ma'nolar nutqiy vaziyat, kontekst bilan uzviy bog'liqdir. Nutqiy vaziyat kontekst bilan uzviy bog'liq bo'lgan bu kabi ma'nolar va ularni ifodalovchi vositalar lingvistik pragmatikaning o'rganish obyekti sanaladi.

Shunday qilib, gapdan anglashilgan mazmun bilan subyekt munosabati pragmatikaga daxldordir. Nutqiy akt, indikativ bo'lmagan so'zlar, kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlovchi shaxsi kabi tushunchalar lingvistik pragmatikaning markaziy tushunchalari sanaladi.

So'zning pragmatik ma'no tuzilishi

Ma'noning torayishi va kengayishi kabi lingvistik hodisalar tilshunoslikda o'ziga xos tarzda tadqiq etilgan⁴. Bu hodisa, ayniqsa, leksikologik sathda atroflicha o'rganilgan bo'lib, ko'pchilik ishlarda leksik ma'no doirasida tahlil etilgan. Aslida ma'no umumlashma tarzida har qanday butunlik uchun o'ziga xos bo'lgan xususiyat bo'lib, tilning barcha sath elementlariga dahldor hodisa hisoblanadi. Chunki dialektik qonuniyatda shakl mavjud ekan, uning ma'nosi-mazmuni ham mavjud bo'ladi. Shuning uchun har qanday shakl ostida muayyan ma'no yotishi uzoq davrlardan buyon hammani qiziqtirib kelgan.

² Safarov Sh, Toirova G. Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlili asoslari. Samarqand, 2007. 19-bet.

³ Safarov Sh. Pragmalingvistika. Samarqand, 2008. 19-bet.

⁴ Nurmonov.A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. Andijon, 1992 y, 10-20 betlar;

Ma'no tilshunoslik, mantiq, filosofiya, psixologiya, semiotika, adabiyotshunoslik kabi fanlarning o'rganish ob'yekti hisoblanadi va bu fanlar ma'noga xilma-xil yondoshadi hamda turli tomondan tadqiqetadi.

Ma'ning o'zgaruvchanlik xususiyati fanda isbotlangan. Uning o'zgaruvchanligi torayish va kengayish tabiatidan kelib chiqib izohlanadi. Chunki ma'no torayganda ham kengayganda ham muayyan o'zgarishga uchraydi. Bunday o'zgarish ma'ning dialektik xususiyatini, lingvistik tabiatini belgilaydi.

Ma'no torayishi – bunda oldin keng ma'noni bildirgan so'z ma'nosidagi ayrim belgilar kamayib, uning ma'nosi torayadi. Qadimda dehqon deganda quyidagi ma'nolar anglashilgan: 1) *katta yer egasi*; 2) *qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan shaxs*; 3) *o'z yerida boshqalar mehnatidan foydalandigan shaxs*. Hozirgi paytda bu so'zning bitta ma'nosi, ya'ni qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi shaxs degan ma'no saqlanib qolgan. Turdosh otlarning, sifat, son, olmosh, fe'l turkumidagi so'zlarning atoqli otga o'tishi ham ma'no torayishiga misol bo'ladi: *zafar (g'alaba) turdosh ot*; *Zafar (ism) atoqli ot*; *go'zal (sifat)*; *Go'zal(ism) atoqli ot*; *sakson – son*; *Sakson ota – atoqli ot*.

Ma'no kengayishi – bunda so'z ma'nosi yangi mazmun hisobiga kengayadi, lekin bu ko'chma ma'nolar hisobiga yuz bermaydi, balki bosh ma'ning kengayishi hisobiga yuz beradi.

Masalan: suv so'zi hozirgi paytda ichimlik ma'nosidan tashqari anor suvi, oshqozon suvi, mineral suv degan ma'nolarda ham ishlatiladi. Bu ma'nolar ko'chma ma'nolar emas, balki bir ma'ning turli qirralaridir. Atoqli otlarning turdosh otlarga o'tishi ham ma'no kengayishiga misol bo'la oladi: *Makintosh – ism*, *makintosh – kiyim turi*, *Xosiyatxon – ism*, *xosiyatxon – atlas turi*.

Ma'ning o'zgaruvchanligi muayyan asoslar ta'sirida yuzaga keladi. O'zgaruvchanlikning yuzaga kelishiga ekstralingvistik, lingvistik, psixologik asoslar ta'sir etadi.



Tilshunoslikda ma'no til belgisining predmetga bo'lgan munosabati asosida –denotativ ma'no, til belgisining tushunchaga bo'lgan munosabati tarzida – signifikativ ma'no, til belgisining nutq vaziyati hamda so'zlovchi va tinglovchini bo'lgan munosabati asosida – pragmatik ma'no, til belgilarining muayyan sohaga munosabati tarzida – stilistik ma'no, til belgilarining boshqa til belgilariga bo'lgan munosabati asosida – struktur ma'no, til belgisining psixologik hodisalarga munosabati asosida – psixologik ma'no kabi turlarga ajratiladi.

Ma'ning bunday turlarga ajratilishi uning o'zgaruvchanlik, ko'p qirralik tabiatiga va xilma-xil asoslarning ta'siriga ko'radir. Bundan tashqari tovushlarning ma'nosi, leksik ma'no, grammatik ma'no, (morfologik va sintaksis) tarzida ham ajratiladiki, bu uning ko'p sathli ekanligidan dalolatdir. Shunday ekan, biz ushbu ishda leksik ma'no doirasidagi ma'ning torayishi va kengayishining pragmatik xususiyatlariga e'tiborni qaratmoqchimiz.

Ma'ning torayishi va kengayishiga dastlab, lingvistik asoslar, ikkilamchi tarzda ekstralingvistik asoslar ta'sir etadi. Lingvistik asoslarni butun leksik sistema hodisalari tashkil etadi. Ayniqsa, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, troplar, simfora, giperbola, litota, epitet, ironiya, perifraz, o'xshatish, polisemiya, monosemiya, okkozionalizm, konversiyalar, enantisema kabi hodisalarning ta'siri orqali ma'ning o'zgarishi o'ziga xos tarzda kechadi. Shuni unutmash kerakki, ma'ning o'zgarishiga bir vaqtning o'zida ham lingvistik, ham ekstralingvistik asoslar ta'sir etadi.

Ekstralingvistik asoslarni psixologik, sotsial, prosodik, geografik, ijtimoiy, nutqiy vaziyat va nutqiy jarayon, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabat kabilar tashkil etadi. Ma'noning torayishi va kengayishining – pragmatik xususiyatlarini ekstralingvistik asoslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun bu hodisaning o'ziga xos xususiyatini faqat lingvistik tomondan emas, balki pragmatik tomondan emas, balki pragmatik tomondan ham tahlil etish zarur.

Hozirgi davr tilshunosligidamazmuniy maydon va ideomatik bo'linish kabi hodisalar ham ma'noning o'zgarishiga ta'sir etuvchi asoslar tarzida izohlanmoqda. Umumiy holatda ma'noning o'zgarishiga juda ko'p asoslarning ta'siri pragmatik jihatdan bo'ladi.

Leksik ma'no assotsiativ-tematik maydonni pragmatik jihatdan tashkil etadi. Shuning uchun tayanch ma'no bilan bog'lanish muayyan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, geoeografik muhit, yashash tarzi asosida kechadi.

Pragmatik ma'no ifodalovchi vositalar

Farobiy narsaning obyektivligini, uning mavjudligi bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etishini e'tirof etadi. Biz faqat o'zimizni qurshab turgan olamdagi narsalarni sezgi a'zolarimiz orqali bilib olamiz. Ushlash, qo'l tegizish y'oli bilan olingan bilimga quvvai lomisa, ko'rish orqali olingan bilimga quvvai nigohiy, eshitish sezgisi orqali olingan bilimga esa quvvai notiqa sanaladi. Ifoda formalarining qo'llana boshlanishining o'zidayoq munosabat tushunchasi namoyon bo'ladi. Shuning uchun bularga xos semantik, sintaktik, ayniqsa pragmatik xususiyatlarni ma'lum lingvistik mezonlar vositasida ajratish bugungi tilshunoslikning asosiy masalalaridandir. Kommunikativ faoliyat turli xildagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi, bulardan, masalan lisoniy bilim til tizimi tuzilishi bilan bog'liq bo'lsa, qomusiy bilim esa voqelikni aks ettiradi va nixoyat interaktiv bilim o'zaro munosabat asosida turgan, ijtimoiy guruh uchun umumiy bo'lgan qoidalar to'plamini bilishni taqozo etadi.

Muloqotdoshlarning bir-birini tushunishi lisoniy kommunikatsiyaning asosiy shartidir.

Masalan, “choy tugabdi”, “sovuq” jumllarini “choy damla”, “issiqroq kiyin” yoki “eshikni yop” kabi mazmunlarida anglash uchun o'zaro umumiy va oldindan ma'lum bo'lgan ma'lumotga ega bo'lish kerak. Ammo bunday holatda “orqa fon”da turadigan ma'no o'z-ozidan paydo bo'lmaydi. Asosiy muloqot birligi bo'lgan matnning umumiy tuzilishi, mazmuniy mundarijasi lisoniy birliklar kommunikativ ma'nosini shakllantiruvchi tajriba maydonidir.

Tver pragmalingvistika maktabining vakili M.L.Makarov matn mazmuniga tavsif “kommunikatorotsentrik” yondashuv tarafdorlaridan biridir. Mixail Lvovich o'z ustozlari prof.I.P.Susov izidan borib matn mazmunining denotativ va signifikativ xususiyatlari qatoriga *propozitsiya, referensiya, eksplikatura, inferensiya, implikatura, relevantlik, presuppozitsiya* kabilarni kiritadi.

Propozitsiya gap mazmunini yetkazishning o'ziga xos shakli bo'lib, u axborotni to'plash, saqlashning kognitiv struktura qatoriga kiradi. Bundan tashqari, aynan ovoz oxangi yordamida suhbatdosh tomonidan tinglovchiga berilayotgan so'zni so'roq, buyruq, tasdiq, kesatish yoki iltimos tarzida ekanligini anglash mumkin bo'ladi. Masalan, rus tilida hamma uchun ommabop bo'lgan “извините” so'zi turli xil ohanglar bilan (kuchli his-hayajon, ta'sirlanish, achchiqlanish, yumshoq ohangda va.b) talaffuz qilinganda, o'zbek tilidagi kabi boshqa-boshqa ma'nolarni (kechirim so'rash, murojaat qilish, tushunmaganligini ifoda etish, hayratlanish, achchiqlanish, kesatish, masxara qilish va.b) anglatib kelishi mumkin. Masalan,

1. Salima choyni damla.
2. Salima choyni damla?

3. Salima choyni damla!
4. Salima choyni damlagan bo`lishi kerak.
5. Aminmanki, Salima choyni damladi.

Ushbu tuzilmalarning semantic strukturasi yagona, ammo ushbu propozitsiya muloqot matnida faollashib turli pragmatik mazmun bilan boyidi. Shu bilan birga, nutqning ovoz ohangi xususiyatlari voqelik yoki kontekst orqali aniqlanadi va gapning leksik sostavi hamda Grammatik qurilishi bilan birgalikda sodir bo`ladi. Intonatsiya aloqa aralashuvining muayyan konkret sharoitlarida gapda aytilgan fikrning tugallanganligini bildiradi. U kishilarning aloqa aralashuv jarayonidagi emotsional iroda munosabatlarini ham ifoda etadi. Intonatsiya gaplarning kommunikativ ma`nosi tiplarini va turlarini farqlashga yordam beradi. Gapning kommunikativ ma`nosi juda umumiy bo`lib, uning yordamida gap asosan, to`rt xil kommunikativ toifaga ajratiladi: darak, so`roq, buyruq va undov. Ularning bu turlari fonetik tajribalar orqali asta-sekin bilib olinadi va u birorta hikoya, so`roq, tilak yoki undovning bir xil turi sifatida idrok qilinadi.

Masalan, hikoyada biz o`z xabarimiz, javobimiz, atashimiz va sanashimizning intonatsiyasini farqlaymiz. Nutqiy intonatsiya davrlarga, davrlar jummalarga, jumlar sintagmalarga bo`linadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o`zbek tilshunosligi tarixan qisqa davrda millat ma`naviyatiga daxldor yirik ishlarni bajarishga ulgurdi. Ammo bugun jadal rivojlanish yilida bo`lga o`zbek tilshunosligining oldida o`z tadqiqini kutayotgan masalalar borki, bu boradagi tadqiqotlar birinchi galda “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to`g`risida”gi Farmonda belgilanganidek, “...ona tilimizning qo`llanish doirasni kengaytirish, uning tarixiy ildizlarini chuqur o`rganish va ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish”ga yo`naltirilgan bo`lishi kerak.

Pragmalingvistikaning lisoniy tadqiqot maydoniga dadil chiqishining sababi ham shaxs faoliyatining kommunikant sifatida barcha qirralarini o`rganish, aloqa- aralashuvda ahamiyatli bo`lgan barcha vosita, usul va uslublarni kommunikativ aktning tashkil etuvchisi sifatida tadqiq etishdan iboratdir. Kommunikativ aktda ishtirok etuvchilar - shaxslarning tiplari, ularning psixologik, sotsiologik, milliy, mantiqiy, etik, etnolingvistik, mental xususiyatlarini aniqlash va shu asnoda lisoniy shaxs tipologiyasini o`rganish ichki va tashqi lingvistikaning mushtarak holda kommunikatsiyaga xizmat qilishini anglatadi. Bu esa nuqtiiy akt, nutq uslubi, nutqiy taktika va strategiya, nutqiy situatsiya, kommunikantlar o`rtasidagi hamkorlik (hurmat, mulozamat, e`zoz; kinoya, e`tiborsizlik, mensimaslik...), noverbal va supersegment vositalar kabi masalalarni ko`rib chiqishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov.A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. Andijon, 1992 y, 10-20 betlar;
2. Safarov Sh, Toirova G. Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlili asoslari. Samarqand, 2007. 19-bet.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Samarqand, 2008. 19-bet.
4. Nurmonov.A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. Andijon, 1992 y, 10-20 betlar;
5. Ne`matov H., Rasulov R. O`zbek tili system leksikologiyasi asoslari. –T, 1995.55b.
6. Shomaqsudov A. va boshqalar. O`zbek tili stilistikasi. – T: O`qituvchi. 1983
7. Hakimov .M. O`zbek pragmalingvistikasi asoslari. T.2013 y
8. Shomaqsudov A. va boshqalar. ko`rsatilgan manba. 239-b